

### SAN'AT YO'LIDAGI BUYUK XIZMAT

**Abdumalikova Ra'no Adaxamjon qizi**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali  
Akademik xonandalik bo'limi 1-bosqich talabasi.

**Allaniyazov Bahadir Qutlimuratovich**

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19499720>

**Annotatsiya.** Bu maqola O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan artisti, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti, Roza Kutekeyevaning ijodiy hayoti haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa, kuy, san'at, sahna, iste'dod, teatr, ijro, asar, qo'shiq, madaniyat, faoliyat.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается творческая жизнь Розы Кутеевой, заслуженной артистки Республик Узбекистан и Казахстан, народной артистки Республики Каракалпакстан.

**Ключевые слова:** музыка, мелодия, искусство, сцена, талант, театр, представление, работа, песня, культура, деятельность.

**Abstract.** This article examines the creative life of Roza Kutekeyeva, Honored Artist of the Republics of Uzbekistan and Kazakhstan, People's Artist of the Republic of Karakalpakstan.

**Key words:** music, melody, art, stage, talent, theatre, performance, work, song, culture, activity.

Dunyoda yurtlar ko'p. Har bir yurtning o'ziga xos urf-odatlar va milliy kuy qo'shiqlari mavjud. Bu an'anani va milliy qo'shiqlarimizni yanada dunyo yuziga taratayotgan ustozlarning mehnat faoliyati beqiyos. Bugungi kunda musiqa san'ati va ta'limi rivojida o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan ustoz olimlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, musiqa san'ati inson qalbini tarbiyalovchi kuch sifatida alohida o'rin tutadi.

Musiqa – qalbning eng nozik torlarini chertadigan, inson ruhiyatini yuksaklikga olib chiqadigan buyuk san'atdir. Har bir inson hayotida yo'l ko'rsatuvchi, ilhom beruvchi ustoz bo'ladi. Ana shunday fidoyi insonlarning biri – O'zbekiston davlat Konservatoriyasi Nukus filiali "Umumkasbiy va ijtimoiy fanlar" kafedrasi professori, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti, O'zbekiston, Qozog'ston, Tataristonga xizmat kursatgan artist konservatoriyada samarali faoliyat yuritib kelayotgan Ro'za Kutekeyevadir.

Ro'za Kutekeyeva 1965-yil 12-yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeli tumanida tavallud topgan. Ro'za Kutekeyevaning musiqaga bo'lgan cheksiz qiziqishi va mehr-muhabbati yoshligidanoq namoyon bo'la boshlagan. U hali bolalik chog'laridayoq kuy va ohanglarga oshno bo'lib, musiqaning sehrli olamiga qalban oshufta edi. Ro'za Kutekeyevaning tug'ilib o'sgan qishlog'ida musiqa maktabi bo'lmagan. Ammo bu holat uning qalbidagi jo'sh urgan san'atga bo'lgan mehrini so'ndira olmadi. U 7 yoshga to'lganda o'rta maktab ostonasini hatlab kiradi.

Ana shu maktab devorlari orasida uning musiqaga bo'lgan ilk jiddiy qadamlari tashlana boshlaydi.

Maktabda tashkil etilgan musiqa to'garigiga u eng kichkina a'zo sifatida qabul qilinadi.

Yoshining kichikligiga qaramay, undagi ishtiyoq va qiziqish boshqalarnikidan aslo kam emasdi. Har bir mashg'ulotga katta hayajon bilan kelar, kuy va qo'shiqlarni tez o'zlashtirar, ustozlarining e'tiborini qozonardi. Go'yo uning qalbida allaqachon musiqa yashar, faqat uni yuzaga chiqarishgina kerak edi. Shu tariqa oddiy maktab to'garagida boshlangan bu yo'l keyinchalik uning butun hayotini belgilagan buyuk maqsad sari ilk qadam bo'ldi. Ro'za Kutekeyeva nafaqat maktabdagi musiqa to'garagining faol a'zosi edi, balki qishlog'ida va tuman miqyosida o'tkaziladigan barcha madaniy tadbirlarda ham muntazam ishtirok etardi. Har bir bayram, har bir tantana uning uchun yangi imkoniyat, yangi sahna edi.

Yosh bo'lishiga qaramay, u sahnaga dadil chiqardi. Qishloq ahli uning tiniq ovozi, samimiy ijrosini mehr bilan tinglar edi. Tuman tadbirlarida qatnashib, o'z iste'dodi bilan ko'pchilikning e'tiborini qozona boshladi. Har bir chiqishi uning tajribasini oshirar, sahna madaniyatini shakllantirar va muhabbatni yanada mustahkamlar edi.

Shu tariqa kichik qishloq sahnalaridan boshlangan kichik qizning ijodiy yo'li asta-sekin kengroq maydonlarga tomon ochila bordi. Kutekeyevaning san'at yo'lidagi ilk qadamlari bevosita uning birinchi musiqa ustози – Allabergen ustoz nomi bilan bog'liqdir. Aynan shu inson uning kichik qalbidagi musiqaga bo'lgan cheksiz mehrni ko'ra bilgan va uni qo'llab quvvatlagan. Yosh shogirtining iste'dodini payqab, unga ilk saboqlarini bera boshlagan. Har bir dars oddiy mashg'ulot emas, balki saboq va tarbiya maktabi edi. Ro'za Kutekeyevaning ilk ijrolari maktab yillariga to'g'ri keladi. U sahnada ilk bor ijro qilgan "Maktabim" va "Kapalak" qo'shiqlari bilan sahnaga chiqqan. Bu qo'shiqlar uning beg'ubor bolalik tuyg'ulari va musiqaga bo'lgan sof mehrini ifoda etgan ilk qadamlar edi. Ammo uni haqiqiy sahnaga olib chiqqan va elga tanitgan asar xalq qo'shig'i "Keng dala" bo'ldi. Aynan shu ijrolar uning qalbida san'atga bo'lgan ishonchini yanada uyg'otib, kelajakdagi buyuk maqsadlarga yo'l ochdi.

Kutekeyeva o'rta maktabning 10-sinfni tamomlagach, san'atga bo'lgan chuqur qiziqishi uni yangi marralarga yetakladi. U Japaq Shomurodov nomidagi Nukus davlat san'at va musiqa bilim yurtiga "Vokal xonandaligi"ga qabul qilindi. Shu ondan boshlab "Xonandalik" bilan professional shug'illana boshladi. Uning ilk ustози Qoraqalpog'iston xalq artisti Ilich Xo'jametov bo'ldi. Kutekeyeva musiqa bilim yurtida tahsil olgan yillarida, uning birinchi va eng aziz ustози unga musiqa san'atning sirli va boy dunyosiga olib kirdi. Shu ustozining ko'rsatmasi bilan, u turli mamlakatlarning chet el qo'shiqlarini o'rganib, ularni xotirasida mustahkamlab bordi.

Har bir nota, har bir ohang Ro'za Kutekeyevani yanada mukammal ovozga, ayniqsa, yorqin va nozik soprano ovoziga yetakladi. Ro'za Kutekeyeva tez-tez shu ustozidan juda fahrlanishini aytar, bu fahr uning san'atga bo'lgan mehrini yana chuqurlashtirganini yashirmas edi. Ustozining tajribasi va mehribon yo'nalishi Ro'za Kutekeyevani iste'dodini yanada charxlab, professional san'at yo'liga ilk qadam bo'ldi. Ro'za Kutekeyeva 1986-yil O'zbekiston Davlat Konservatoriyasiga o'qishga qabul qilindi. U yerdagi ustози O'zbekiston xalq artist datsent Rozalinda Laut qo'lida taqsil oldi. Yoshligida uning qalbida birgina orzu yashardi.

Opera sahnasida chiqish qilish orzusi. Har kuni televizor qarshisida opera tomoshasini tomosha qilardi, garchi o'sha paytlarda opera nima ekanini to'liq tushunmasa ham. Shunday bo'lsada, Roza Kutekeyeva ich-ichidan shunday niyyat qilardi; "Agar bizning qishlog'imizda ham opera qo'yilsa, men ham sahnaga chiqib o'ynayman" derdi. Shu kichik orzu va maqsad sari intilishi uni kata sahnalarga yetakladi. Ro'za Kutekeyevaning uzoq kutilgan orzusi amalga oshdi.

U 1987-yil 14-noyabrda Kompozitor Najmaddin Muxammeddinov muallifligidagi Qoraqalpog'istonning birinchi milliy "Ajiniyaz" operasi sahnaga qo'yildi va bu operada bosh qahramon "Xonzoda" ro'lini yuksak darajada muvoffaqiyat bilan ijro etdi. Opera dekabr oyida Alisher Navoiy nomidagi Katta Opera va Balet teatrida tomoshabinlar e'tiboriga havola qilindi.

Shu ilk sahna chiqishi Kutekeyevaning hayotidagi muhim burilish nuqtasi bo'lib, uning musiqiy iste'dodi va sahnadagi mahoratini keng jamoatchilikka namoyish etdi. Ro'za Kutekeyeva ushbu operani ijro etayotgandagi ichki kechinmalarini shunday tasvirlardi; *"Xonzoda ro'lin ijro etayotgan paytimda sahna butunlay boshqa bir olamga aylangan edi. Yorug'lik yuzimni yaltirar, libosim har bir burilishi tomoshabinlar ko'zini qamashtirar edi. Har bir ohang, har bir nafasim, har bir harakatim ichki kechinmalarim bilan to'la edi. Tomoshabinlar mening oldimda sukut saqlab o'tirar, go'yo sahnada faqat men bormishdek edim. Shu laxzada g'urur va qo'rquv aralash tuyg'ular qalbimni bosib oldi. Dunyo esa ichimdan faqat menga qarab turgandek tuyuldi. Lekin ichimda yonib turgan bir ovoz menga kuch berdi. Men bu ro'lni tomoshabinlarga chin dildan yetkazishim kerak. Shu ichki majburiyat meni har bir harakatga, har bir ohangga ruh bag'ishladi.*

*Musiqqa ohanglari menga hamroh bo'lib, sahnada har bir soz, har bir qarash tomoshabin qalbini ezgulikka to'ldirdi"*, deya ta'kidkaydi. Shu lahzada Ro'za Kutekeyeva his qilgan g'urur, qo'rquv va mas'uliyat tomoshabinlarga ham yetib bordi. Ular nafaqat sahnani, balki Kutekeyevaning ruhini ham ko'rdi.

Ro'za Kutekeyevaning eng sevib kuylaydigan va tinglaydigan operalari juda ko'p edi, lekin eng muhimi u har bir operaning tarbiyaviy ahamiyati va go'zalligiga e'tibor berardi. Har bir nota, har bir sahna u uchun nafaqat musiqqa, balki hayot darsi, ruhiy ozuqa bo'lardi. Talabalik chog'larida esa u teatrga borar, sahnadagi har bir tafsilotni ko'zdan qochirmaslikka harakat qilardi.

Har bir opera, har bir spektakl uning qalbida chuqur iz qoldirar, u o'sha sahnalardan ilhom olib, o'z ovozi, ijrosini va san'atga bo'lgan sevgisini rivojlantirardi. Konservatoriyani tugatgach, Berdaq nomidagi Musiqali akademik teatriga yo'llanma asosida eng oliy toifaga ishga olindi.

Ushbu teartga 1991-yildan to 2024-yilgacha o'z faoliyatini yuritib borgan.

1995-yili Qozog'iston shahrida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston madaniyat kunlari bo'lib o'tgan. Ro'za Kutekeyevaning samarali mehnatini etibordan chetda qoldirmagan holda Kutekeyevaga Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni berilgan. Undan tashqari 1996-yil Ozbekiston Respublikasi Mustaqilligining 5 yilligiga bag'ishlab, "O'zbekiston Vatanim manim" tanlovi e'lon qilingan. Ushbu tanlovda "O'zbekiston Mustaqillik gullari" qo'shig'ini butun vujudi ila sahnaga olib chiqqan. Bu qo'shiq O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov e'tiborini qozongan va faxrli qatnashgan Ro'za Kutekeyevaga 1996-yil oktabr oyida "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni topshirilgan. 2000-yilda Qoraqalpog'iston madaniyat kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. U yerda Ro'za Kutekeyevaga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovor bo'ldi. Undan tashqari 2025-yili "Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoni sohibasiga aylandi.

Bugungi kunda Ro'za Kutekeyeva O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialida samarali faoliyat yuritib, yosh avlod qalbida san'at nurlarini singdirib kelmoqda. U nafaqat bilim beruvchi professor ustoz, balki shogirtlari uchun ilhom manbai, yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy ustundir.

Uning mehnati va saboqlari hali uzoq yillar davomida san'at osmonida porlaydigan iste'dodlarni kamolga yetkazishiga butun san'at ahli ishonadi. Shunday ustoz qo'lida ta'lim olayotganimni o'zimga uchun katta baxt va sharaf deb bilaman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. SKRIPKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI B Allaniyazov - Вестник музыки и искусства, 2025
2. MUZÍKA KÓRKEM ÓNERINIŇ BAYTEREGI (Kompozitor Najimatdin Muxammeddinovtiń ómiri hám dóretiwshiligi haqqında) B Allaniyazov - Вестник музыки и искусства, 2023
3. ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ ЖА Чаршемов - Вестник музыки и искусства, 2024
4. KÓRKEM ÓNERGA BAĖISHLANĖAN ÓMIR K Gúlmaryam, S Gwzal - Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2026